

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Kirishmali yarimo`tkazgichlarda erkin elektronlarning energetik satxlarini o`rganish

Haydarova Laylo Hasan qizi

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Radiotexnik qurilma va tizimlar kafedrasи assistenti

Annonatsiya: Ushbu maqola yarimo`tkazgichlar ularning qo`llanilish sohalari va yarimo`tkazgichning haroratga bog`liqligini organishga bag`ishlangan. Amalga oshitriilgan ishlar natijasiga ko`ra yarimo`tkazgichlar qattiq jisimlar fizikasining jadal rivojlanayotgan tarmog`i ekanligini takidlash mumkin.

Kalit so`zlar: akseptor va donor aralashma, kambag`allashgan soha, taqiqlangan zona.

Yarimo`tkazgichlar o`tkazuvchanligi jihatidan metal va dielektriklar orasidagi moddalar hisoblanadi. O`z fizik xususiyatlarini har-xil tashqi ta`sirlar (masalan yoritish, isitish va boshqalar) natijasida keng oraliqda o`zgartira olish xususiyatiga ega. Yarimo`tkazgichlar elektrotexnika va mikroelektronikada juda keng qo`llanilib, zamonaviy elektr jihozlarning deyarli hammasi kompyuterlardan tortib to uyali aloqa telefonlarigacha barchasi yarimo`tkazgichli texnologiyaga asoslangan. Eng ko`p qo`llaniladigan yarimo`tkazgich modda kremniy bo`lib, u yer qobig`ining taxminan 30% ni tashkil qiladi. Lekin boshqa moddalar (germaniyl, selen, tellur, mishyak) ham elektrotexnikada qo`llaniladi[1].

Taqiqlangan soha. Yarimo`tkazgichlar va izolyatorlarda to`ldirilgan energiya zonasini bo`sh zonadan kengligi bir necha elektronvoltga yetadigan energiya tirqishi taqiqlangan zona ajratib turadi. Bu taqiqlangan zona orqali elektronlan issiqlik enerqiyasi hisobiga o`tib ketishi mumkin. Temperatura ortishi bilan bunday o`tishlar ehtimoli ortadi. Shuning uchun temperatura ko`tarilgan sari yarimo`tkazgichlar va dielektriklarning o`tkazuvchanligi oshadi, bu ularning

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

metallardan asosiy farqidir[3]. Izolyatorlar va yarimo`tkazgichlarning bir biridan farqi quydagicha: izolyatorlarda taqiqlangan zona yarimo`tkazgichlardagidan keng.

Bundan tashqari yarimo`tkazgichlarda kirishma o`tkazuvchanligi muhim ro`l o`ynaydi. 250 K dan yuqori temperaturalarda kremniy taqiqlangan zonasining temperaturaga bog`liqlik grafigi chizig`i ya`ni $E_g = (1,205 - 2.84) \cdot 10^{-4} \text{ eV}$. Kremniy taqiqlangan zonasining kattaligi tufayli uning xususiy solishtirma qarshiligi Ge ga qaraganda 3 tartibga ortiq. Yarimo`tkazgichning ishslash prinsipi[2]. Kontakt zonasini yaqinidagi n-mintaqada elektron kontsentratsiyasi kamayadi va musbat zaryadlangan qatlam paydo bo'ladi. p-mintaqada teshiklarning kontsentratsiyasi kamayadi va manfiy zaryadlangan qatlam paydo bo'ladi.

Misol uchun, p-n-p tipidagi germanium tranzistori donor aralashma, ya`ni l-tipi bo`lgan kichik germanium plastinkasidir. Ushbu plastinkada qabul qiluvchi aralashma ega bo`lgan ikkita mintaqada yaratiladi, ya`ni teshik o`tkazuvchanligi bilan tranzistor plitasi taglik deb ataladi, qarama-qarshi turdagи o`tkazuvchanlikka ega bo`lgan joylardan biri kollektor (K), ikkinchisi esa emitent (E) [5].

Tranzistorning ikkala n-p-o'tish joyi ikkita oqim manbaiga ulangan. Emitent-bazaning ulanishi oldinga (o`tkazuvchanlik) yo'nalishda (emitter sxemasi) va kollektorning kollektor-tayanch birikmasi) yoqiladi. Emitent davri ochiq bo`lsa, kollektor pallasida oqim juda kichik, chunki o'tish bazadagi elektronlarning asosiy erkin zaryad tashuvchilari va kollektordagi teshiklar uchun o`zgarmaydi. Emitent sxemasi yopilganda, teshiklar emitentdagi asosiy zaryad tashuvchilar undan bazaga o'tib, oqim hosil qiladi. Teshiklarning ko'pchiligi bu o'tish maydoni tomonidan ushlanib, kollektorga kirib, oqim hosil qiladi.

Kollektor oqimi amalda emitent oqimiga teng bo'lishi uchun tranzistorning asosi shaklda qilingan. Emitent zanjiridagi oqim o'zgarganda, kollektor zanjiridagi oqim ham o'zgaradi. Agar o'zgaruvchan kuchlanish manbai emitent pallasiga kiritilgan bo`lsa u holda o'zgaruvchan kuchlanish kollektor sxemasiga kiritilgan R rezistorida ham paydo bo'ladi, uning amplitudasi kirish signalining amplitudasidan ko'p marta oshib ketishi mumkin. Shuning uchun tranzistor AC kuchlanish

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kuchaytirgichi sifatida ishlaydi[4].

Xulosa. Ushbu maqola yarimo`tkazgichlar ularning qo`llanilish sohalari va yarimo`tkazgichning haroratga bog`liqligini organizhga bag`ishlangan. Amalga oshitiilgan ishlar natijasiga ko`ra yarimo`tkazgichlar qattiq jisimlar fizikasining jadal rivojlanayotgan tarmog`i ekanligini takidlash mumkin.

Elektronikaning jadal rivojlanishi yangii va xilma-xil yarimo`tkazgichli qurilmalar va integral mikro sxemalar paydo bo`lishi bilan pog`liq bo`lib, ular kompyuter texnikasi, astronaftika, avtomatlashtirish, radiotexnika va telvidinyada o`lchash asboblarida, tibbiyotda, bialogiya va boshqalarda ko`p qo`llaniladi. Lekin XXI-asrda ham yarimo`tkazgichlarning FIK 27-29% dan oshmayabdi. Bu esa hali yarimo`tkazgichlar ustida ko`p ishlashimiz kerakligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Я.Нашельский, Производство полупроводниковых материалов, Москва, “Металлургия”, 1982.
2. Ю.М.Таиров, В.Ф.Цветков Технология полупроводниковых и диэлектрических материалов, "Высшая школа" 1990.
3. <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-88940-1.html?page=8>
4. А.Тешабоев, С. Зайнообидинов, Ш.Эрматов қаттиқ жисм физикаси. Тошкент 2001.
5. О.Д.Парфенов. Технология микросхема .М., "Высшая школа" 1986.